



**O'ZBEK TILIDA GENDER IFODALANISHINING O'ZIGA XOS
JIHATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13380687>

I. A. Egamberdiyeva

ADCHTI katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

O'zbek tilida genderning ifodalanishiga oid o'ziga xos jihatlari ko'p asrlik madaniy va ijtimoiy jarayonlarning mahsulidir. Ushbu maqolada O'zbek tilidagi gender ifodalari, ularning shakllanishi va o'zgarishi tarixiy, lingvistik, hamda ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Xususan, tilning jinsiy belgilar orqali insonlarni tasniflash va bu tasnifning madaniy qadriyatlar bilan aloqadorligi muhokama qilinadi. Shuningdek, genderning ifodalanishida mavjud bo'lgan til birliklari, ularning leksik-semantik xususiyatlari, morfologik shakllanishi va pragmatik ahamiyati batafsil o'rganiladi. Tadqiqotda O'zbek tilida gender ifodalarining rivojlanish tendensiyalari va zamonaviy jamiyatdagi roli ham yoritib beriladi. Maqolaning maqsadi O'zbek tilida genderning ifodalanishi bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalarni ilgari surishdir.

Kalit so'zlar

O'zbek tili, gender ifodasi, lingvistika, jinsiy tasnif, til va gender, leksik-semantika, morfologik tahlil, madaniy qadriyatlar, gender tadqiqotlar, zamonaviy jamiyat.

KIRISH

Tilshunoslikda an'anaviy tahlil usullari bilan bir qatorda, uni sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlar bilan bog'laydigan yangi tahlil usullariga qiziqish kuchaymoqda. Bu tahlil usullari orqali tilshunoslikda yangi zamonaviy yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Shunday yo'nalishlardan biri lingvogenderologiya hisoblanadi. Bu fan tilning gender xususiyatlarini o'rganadi va ikkita asosiy masalani qamrab oladi: ayollar va erkaklar nutqining tafovutlari hamda o'ziga xos xususiyatlari; til tizimida erkaklik va ayollik belgilariga bog'liq tushunchalarni ifodalovchi til birliklariga e'tibor qaratadi. Tilshunoslikda gender masalalarini o'rganishda nutqiy faoliyatning barcha ko'rinishlari, yozma va og'zaki matnlar tadqiqot ob'ekti bo'lishi mumkin. Dunyo tilshunosligida bu masalalarga bag'ishlangan ishlar anchagina. Til va gender muammosini tadqiq etishda diskursga alohida ahamiyat beriladi, chunki so'zlashuvda ayollik va erkaklik belgilari bilan shartlangan ko'plab hodisalar, jumladan, nutqning ayol yoki erkaklarga xos xususiyatlari voqelanadi. Shu



jihtadan diskursning gender xususiyatlarini ochib berish juda qiziqarli ma'lumotlarni beradi.

"Diskurs" atamasi fransuz tilidan olingan bo'lib, matnning og'zaki so'zlashuv shakli, dialog, bir-biriga ma'no jihatidan bog'langan mulohazalar yig'indisi, nutqiy asar ma'nolarini bildiradi. O'zbek tilida amalga oshirilgan tadqiqotlarda diskurs atamasi ko'proq og'zaki matn ma'nosini bildiradi. Har qanday talqinda ham diskurs matn tushunchasi bilan uzviy aloqador. Ta'kidlash joizki, tilshunoslikda diskurs va matn tushunchalarining o'zaro munosabati masalasi ilmiy munozaraga ham sabab bo'lgan. Shu o'rinda tilshunos Sh.Safarovning quyidagi fikrlari asoslidir: "Ma'quli, qiyoslanayotgan bu ikki hodisani "giperonim" - "giponim" munosabatida o'rganishdir. Diskurs inson ongli faoliyatining ma'lum bir turi, turkumi bo'lsa, matn uning bir ko'rinishidir. Diskurs kategoriyasining bu xildagi keng ma'noda, umumlashtiruvchi mazmunda talqin qilinishi muloqot tizimi, inson ongli faoliyati bilan qiziquvchi boshqa fan sohalari - falsafa, sotsiologiya, psixologiya, kibernetika kabilar uchun allaqachonlar e'tirof etilgan qoidadir".

Muloqot jarayonida ayol va erkaklarga xoslikni aniqlash qiyin emas. Shu o'rinda diskursning ayrim gender xususiyatlari to'g'risida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Ayollar tabiatan nozik yaratilgan bo'lgani uchun, suhbat davomida jozibador va boy lug'at birikmalarini, shaxsiy munosabatlarni ifodalovchi so'zlarni, ayniqsa, ijobiy ma'noga ega bo'lgan so'zlarni ko'p ishlatadilar. Suhbat mavzusi ko'pincha biroz bo'rttirilgan bo'ladi. Ayollarda suhbat jarayonida emotsionallik kuchliroq bo'lib, hayratlanish, sevinish, hafa bo'lish, qo'rqish kabi hissiy holatlar aniqroq namoyon bo'ladi.

Ayollar va erkaklar nutqi o'rtasidagi farqlar jumalalarda ham yaqqol seziladi. Ayollar suhbatdoshining fikriga qo'shilish yoki qo'shilmasligini ifodalayotganda, uni hafa qilmaslik uchun ehtiyotkorlik bilan gapiradilar va o'z noroziliklarini ifodalash uchun neytralroq til konstruktsiyalaridan foydalanadilar. Masalan, "keyinroq borsak bo'lmaydimi?", "keyinroq borsak bo'lar ekan" kabi jumalarni ishlatadilar. Erkaklar esa bu holatda "keyinroq boramiz", "keyinroq borsak bo'ladi" kabi aniqroq ifodalarni qo'llaydilar.

G'arb tilshunoslarining fikriga ko'ra, ta'kidli so'roq gaplar, masalan, rus tilidagi "Tebe eto nraivitsya, ne tak li?" ingliz tilida so'zlashuvchi ayollar nutqining asosiy sintaktik xususiyatlaridan biridir. Ayollar va erkaklar nutqining o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri ayollarning erkaklarga qaraganda ko'proq nutqiy muloqotda xushmuomala bo'lishga, odob saqlashga, suhbatdoshiga nisbatan hurmat ko'rsatishga harakat qilishlaridir.

Ayol va erkaklarning yozma hamda og'zaki nutqidagi farqlar jinslarning psixologiyasi, tafakkuri va jamiyatdagi gender normalari asosida shakllanadi. Bu



farqlarni o'rganish kelajakda o'zbek tilining gender xususiyatlarini tadqiq etuvchi olimlar uchun muhim bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida gender xususiyatlarini o'rganish tilshunoslik, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlar uchun katta ahamiyatga ega. Personajlar nutqida genderni xos xususiyatlar quyidagicha namoyon bo'ladi:

Leksik va frazeologik farqlar: Ayollar va erkaklar nutqida ishlatiladigan leksik va frazeologik birliklar o'zaro farqlanadi. Ayollar ko'proq nozik va bo'yog'dor so'zlarni, shaxsiy munosabatlarni ifodalovchi iboralarni qo'llashadi, masalan, "aylanay", "girgittan" kabi so'zlar ayollar nutqida ko'proq uchraydi. Erkaklar esa ko'proq aniq va to'g'ri so'zlar bilan ifodalanadi.

Fonetik farqlar: Ayollar va erkaklar o'rtasida fonetik farqlar mavjud. Ayollar nutqida ovoz mayinroq va ingichka bo'lib, urg'u ko'proq cho'ziladi. Erkaklarning ovozi esa odatda qattiq, kuchli va bir oz dag'allikni o'z ichiga oladi.

Emotsional xususiyatlar: Ayollar nutqida emotsionallik va hissiyotlar ko'proq ifodalanadi. Ayollar turli holatlar va his-tuyg'ularni tezroq ko'rsatadi va bu ko'proq nutqiy vositalar orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, "Voy, o'la qolay!", "Voy, tovvo-ey!" kabi ifodalar ayollarning hayajonini va emotsional holatlarini aks ettiradi.

Jumla tuzilishi: Ayollar jummalarni qurishda ehtiyotkorlik bilan yondashadilar, suhbatdoshini hafa qilmaslik uchun neytralroq konstruksiyalardan foydalanadilar. Erkaklar esa aniq va qat'iy ifodalardan foydalanadilar. Masalan, ayollar "keyinroq borsak bo'lmaydimi?" kabi ehtiyotkor jummalarni ishlatadi, erkaklar esa "keyinroq boramiz" kabi aniqroq ifodalarni tanlaydilar.

Suhbat usullari: Ayollar suhbatda ko'proq erkalash, achinish, qo'rqish kabi hissiyotlarni ifodalash uchun turli o'ziga xos nutqiy vositalardan foydalanadilar. Erkaklar esa ko'proq aniq va qisqa ifodalarni tanlaydilar.

Bu xususiyatlar o'zbek tili va madaniyatida gender xususiyatlarini ochib beradi va ayollar va erkaklar nutqi o'rtasidagi farqlarni yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Personajlar nutqida genderni xos xususiyatlar quyidagi tarzda ko'zga tashlanadi:

Leksik farqlar: Erkaklar nutqida "oshna", "boja", "jo'ra", "onasi" kabi iboralar ishlatiladi, ayollar nutqida esa "ovsin", "dugonajon", "egachi", va "dadasi" kabi murojaat shakllari keng tarqalgan. Misol uchun, ayollar nutqida "Dadang tushmagur-a, dadang tushmagur!" kabi iboralar ko'proq uchraydi.

Hududiy farqlar: Ayollar nutqi qishloqlarda yashovchi ayollarda maxsus xususiyatlarga ega bo'lib, "o'lsin", "men o'lay", "voy o'lay", "jonini olsin" kabi so'zlar faol ishlatiladi. Misollar: "Voy o'lay, qanaqa dadangiz?" yoki "...o'lsin, tush ham yomon narsa ekan...".



Erkaklar nutqiga xos iboralar: O'zbek tilida faqat erkaklar nutqida ishlatiladigan iboralar mavjud. Masalan, "Burnini yerga ishqamoq", "Baqbaqangdan akang", "Dabdalasini chiqarmoq", "Jig'ini ezib qo'yimoq", "Otimni (nomimni) boshqa qo'yaman" kabi iboralar erkaklar nutqida uchraydi. Misol: "Burnini yerga ishqayman uning. Meni haqorat qilishi yetmay, yana ustimdan arz qilishi ham bormi?"

Ayollar nutqiga xos iboralar: "Jonini olsin", "Sovuniga kir yuvmoq", "Esim qursin" kabi iboralar asosan ayollar nutqida ishlatiladi. Misol: "Esim qursin, esimdan chiqibdi, kechiring, Vera Pavlovna".

Genderologik farqlar va badiiy asarlar: Yozuvchilar badiiy asarlarda gender farqlarni ko'rsatish uchun ayollar nutqida erkaklarga xos iboralarni ishlatishlari mumkin. Misol: "O'rtog'imni hafa qilsang, bilasanmi, nima qilaman, geroyligingga qaramay, jig'ingni ezib qo'yaman!"

Ijtimoiy kelib chiqarish va kasb: Nutqdagi xususiyatlar insonning ish joyi, yoshi va ijtimoiy kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, paxta qayta ishlash korxonasida ishlovchi kishi bosh og'rig'ini "Boshim siqilgan toy paxtadek og'riyapti" deb ifodalaydi. Ushbu xususiyatlar gender va ijtimoiy faktorlar nutqda qanday ifodalanishini ko'rsatadi va personajlar nutqidagi farqlarni yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

XULOSA

Mazkur ilmiy maqolada O'zbek tilida genderning ifodalanishiga oid o'ziga xos jihatlar lingvistik va madaniy nuqtayi nazardan batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbek tilidagi gender ifodalari asosan madaniy, ijtimoiy, va tarixiy omillar ta'sirida shakllangan va rivojlangan. Til birliklarida jinsiy tasniflash, bu tasnifning til strukturasi va qo'llanilishida qanday aks etishi o'rganildi. Shuningdek, genderning til orqali ifodalanishi, leksik-semantik va morfologik xususiyatlari, zamonaviy jamiyatda gender stereotiplarining saqlanishi va ularning tilga ta'siri ham tahlil qilindi. Xulosa qilib aytganda, O'zbek tilida genderning ifodalanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning kelajakda ham o'zgarishi va rivojlanishi madaniy hamda ijtimoiy omillarga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupov, U. (2022). Gaybullayeva M. Yoshlarning ijodiy tafakkurini shakllantirish. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari, 1(1), 515-518.

2. Nikolaevich, U. P. (2022). Emotional Intelligence and its Adolescents Being an Exemplary. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 139-145.



3. Yusupov, U. (2022). Ergasheva M. Bolada axloqiy va madaniy malakalarni shakllantirishda oilaning roli. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 442-445.

4. Юсупов, У. & Ермаматова, Г. (2022). Deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 448-450.

5. Yusupov, U., & Baxtiyorova, M. (2022). Ijtimoiy gender stereotiplar. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 452-455.